

ISSN : 3030-3974

MAKON VA ZAMON

Пространство и время
Space and time

№2
2025

MAKON VA ZAMON

**ilmiy-falsafiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-sotsiologik,
ma'naviy-ma'rifiy jurnal**

2025/2 (№4)

M u a s s i l a r: “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini
mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti
va O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati

Tahririyat: *t.f.d., professor, akademik O.Salimov, f.f.d., professor*
M.Abdullaeva, s.f.d., professor A.Muminov, f.f.d., professor O‘.Abilov, p.f.d., professor
R.Choriev, p.f.d., professor Z.Ismoilova, f.f.d., professor J.Ramatov,
i.f.d., dotsent X.Pirmatov, s.f.d. – A.Ravshanov.

ISSN 3030-3974

Bosh muharrir – tahririyat rahbari:
Qiyom Nazarov - *f.f.d., professor*

Nashrga tayyorlovchilar:
M.Tursunova, M.Turdiyeva, Q.Kdirbayev

Tahririyat manzili: Qori Niyoziy ko‘chasi, 39,
Toshkent shahri, 100000,
Bichimi 60x84 Ofset qog‘ozi. “Times” garniturası.
Hajmi 20 b.t. Nashriyot hisob tabog‘i 30 b.t. Adadi 300 nusxa

IJTIMOY-IQTISODIY ISLOHOTLARNING YANGI QADRIYATLAR TIZIMI SHAKLLANISHIGA TA'SIRI

Qonisbay Kdirbayev
“TIQXMMI” MTU katta o‘qituvchisi
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va ularning shakllanayotgan yangi qadriyatlar tizimiga ta’siri tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, Taraqqiyot strategiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik, erkin bozor munosabatlari, xususiy mulk va ishbilarmonlikni rivojlantirish, inson qadri.

Аннотация. В статье проанализированы социально-экономические реформы, проводимые на современном этапе развития Узбекистана, и их влияние на формирующуюся новую систему ценностей.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, стратегия развития, социально-экономическая стабильность, свободные рыночные отношения, развитие частной собственности и бизнеса, человеческое достоинство.

Annotation. The article analyzed the socio-economic reforms carried out at the current stage of development of Uzbekistan and their impact on the new system of values being formed.

Keywords: New Uzbekistan, development strategy, socio-economic stability, free market relations, development of private property and business, human value.

Ma’lumki, har qanday evolyutsion o‘zgarishning asosini ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik tashkil etadi. Shunday ekan “davlat ijtimoiy barqarorlikni saqlab turishi, bu barqarorlik doirasida o‘zgarishlarni amalga oshirishi, xalq farovonligini ta’minlashi, eskilik o‘rniga yangilik vujudga kelishi bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni bartaraf qilishi, o‘zgarishlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishini ta’minlab turishi zarur” [2,384].

Jamiyatimizning eng asosiy ustuvor qadriyati bu inson qadri ustuvorligini ta’minlashdan iboratdir. Shu ma’noda iqtisodiy omillar insonning moddiy hayot tarzini yaxshilash, unga munosib turmush tarzini yaratish kabi ezgu maqsadlarni ilgari suradi.

Ijtimoiy nuqtayi nazardan olib qaralganda inson ijtimoiy mavjudot sifatida doimiy ravishda bir-birlari bilan aloqada, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatda bo‘ladilar. Gnoseologik nuqtayi nazardan esa, ba’zan qadriyatlar insonning dunyoni anglashini o‘zida ifoda etuvchi subyektiv voqelik sifatida namoyon bo‘lib, jamiyatning faqat real holatidan emas, ba’lki uning qonuniyatlaridan o‘zish xususiyatini ham o‘zida aks ettirishi mumkin. Masalan, antik davr yunon faylasuflari Platon va Aristotel, shuningdek, sharqning buyuk mutafakkirlari bo‘lmish al-Farobiy, al-Beruniy va Ibn Sinolarning asarlarida keltirilgan ideal jamiyat qurish borasidagi ijtimoiy-siyosiy qarashlari, fikrlari o‘z davridan ancha ilgari ketganligini ko‘rishimiz mumkin. Ular inson qadrini ulug‘lovchi, jamiyatda barchaning teng huquqli bo‘lishi va baxt-saodatli hayot kechirishi haqida fikr-mulohaza yuritib, o‘zlarining asosiy maqsadi va oliy qadriyati sifatida e’tirof etganlar.

Yangilanish, ya’ni islohotlar ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning zaruriy va qonuniy shartidir, chunki jamiyat islohotlarsiz rivojlana olmaydi. Har bir yangi avlod o‘tmish avloddan qolgan moddiy va ma’naviy merosga, albatta, o‘zgartirish, yangilik kiritadi. Demak, islohot o‘z mohiyatiga ko‘ra qonuniydir. Binobarin, islohotni amalga oshirishning birinchi sharti – jamiyatning isloh qilinishi kerak bo‘lgan tizimga xos qonunlarning obyektiv talablarini bilish bo‘lsa, ikkinchi sharti esa shu qonunlarning ro‘yobga chiqishi uchun qulay shart-sharoit

yaratishdir. Agar bu shartlar bajarilmasa, qonunlar ko‘r-ko‘rona, anglanmagan ravishda kam kuch bilan amal qilib, ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlarni keltirib chiqaraveradi [3,24].

Dunyoning eng ilg‘or davlatlari safidan joy olish va ular bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada taraqqiy ettirish bugungi kunda Yangi O‘zbekistonni qurishning eng muhim sharti va omili hisoblanadi. Ma‘lumki, inson manfaatlarini himoya qilish, xalqimizning moddiy ahvolini yaxshilash, kambag‘allikni qisqartirish, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, umuman hozirgi zamon talabiga mos rivojlanish tendensiyalarini shakllantirish, bu boradagi muammolarni maqsadli hal qilish dolzarb vazifalarimizdan biri. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta‘biri bilan aytganda: “Amaliy natijadorlik, inson manfaatlari va yana bir bor inson manfaatlari – iqtisodiy islohotlarimizning o‘zak masalasidir” [1,124].

Umuman olganda ijtimoiy-iqtisodiy qadriyatlarni absolyut o‘zgarmas qadriyatlar deb qarash, mohiyatan to‘g‘ri yondashuv bo‘la olmaydi. Chunki, umumijtimoiy taraqqiyot ular oldiga doimo yangi-yangi talab va vazifalar qo‘yadi. Ushbu talablarni hisobga olgan, maqsad va vazifalarni yangilab, muayyan usullarni boyitib borgan qadriyatlarga asrab qolinadi, qo‘llab-quvvatlanadi. Demak, har qanday islohotning ro‘y berishi ushbu jamiyatda vujudga kelgan qadriyatlarning yangilanishiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Y.Xabermas iborasi bilan aytganda, “Taraqqiyot, krizis va tanqid yo‘li bilan insoniyatning o‘zini o‘zi xalos qilishga asoslangan ijtimoiy evolyutsiya”gina jahonda yuz berayotgan “buyuk innovatsion siljishlar”ni anglashga yordam beradi. Shunday ekan, hech bir ijtimoiy-iqtisodiy qadriyatlar absolyut ma‘noda bir xil saqlanmaydi, ular “krizis va tanqid yo‘li bilan” zamon ruhiga mos o‘zgarib, yangilanib turuvchi hodisa va umumijtimoiy taraqqiyot qonuniyati hisoblanadi.

Bugun mustaqil davlatimiz ham ushbu qonuniyatga tayanib, umumijtimoiy taraqqiyotga mos tadrijiy o‘zgarishlar yo‘lidan bormoqda. Shu ma‘noda ijtimoiy-iqtisodiy jabhalardagi yangilanishlarning mohiyatini quyidagi mezonlar bilan tushintirishimiz mumkin:

- birinchidan, Yangi O‘zbekiston jamiyatida modernizatsiyalashgan iqtisodiyotning shakllanayotgani, bunda xususiy mulk va ishbilarmonlikni rivojlantirish yuzasidan eng muhim institutsional va tarkibiy o‘zgarishlarning amaldagi islohotlarimizda kun sayin o‘z aksini topib izchillik bilan hayotga tatbiq etilib borishi;

- ikkinchidan, mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi sohasining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan isloh qilinishi natijasida yanada rivojlanayotganligi;

- uchinchidan, respublikamizda turizm sanoatini kompleksli rivojlantirish maqsadida ahamiyatga molik strategik vazifalar belgilanib, O‘zbekistonning turistik mamlakatlar safidan tobora joy olayotganligi;

- to‘rtinchidan, innovatsion va raqamli iqtisodiyotning yanada taraqqiy etilayotgani, xususan, “Raqobotbardosh O‘zbekiston konsepsiyasi”ning va “Raqamli iqtisodiyot – 2030” strategiyasining ishlab chiqilganligi, ularning amaliy hayotimizda tobora nomoyon bo‘lib borishi.

Yuqorida keltirilgan mezonlar fikrimizcha, bugungi kunda erkin bozor iqtisodiyotining O‘zbekistonda shakllanayotgan yangi qadriyatlar tizimiga quyidagi hayot mantig‘iga mos keladigan yo‘nalishlarga muvofiq keladi:

- a) aholining ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishi natijasida moddiy hayot tarzining tobora yaxshilanib borishi;

- b) kichik biznes va tadbirkorlikka keng yo‘l ochish va tadbirkorlik muhitini yaxshilash maqsadida ularni qo‘llab-quvvatlash uchun zarur shart-sharoitlarning yaratilishi;

- d) mulkchilikka erkinlikning berilishi, barchaning mulk huquqini hurmat qilishi, xususiy mulkning himoya qilinishi;

- e) kambag‘allikni qisqartirishga doir amaliy chora-tadbirlarning olib borilishi, manzilli dasturlarning ishlab chiqilishi;

- f) ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga, umuman agrar sohaga muhim tarmoq sifatida etibor qaratilishi, klaster va kooperatsiya faoliyatining har tomonlama qo‘llab-quvvatlanishi;

g) o'tmish va tarixdan meros bo'lgan madaniyat va qadriyatlarimizni tiklash va takomil ettirish bo'yicha izchil tadbirlarni amalga ochirishdan iborat muhim mezon va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning olib borilishi.

Ushbu vazifalarning bajarilishi hozirgi O'zbekistonda erkin bozor iqtisodiyoti asoslarini shakllantirishga, shuningdek, bu boradagi tub islohotlarni bosqichma-bosqich ro'yobga chiqarish imkoniyatini beradi. Demak, hozirgi kunda O'zbekistonda joriy etilayotgan iqtisodiy islohotlar real hayotimizda kun sayin o'z aksini topib pozitiv voqelikka aylanmoqda. Bu borada aniq belgilangan, shu bilan birga samarali amalga oshirilayotgan quyidagi vazifalarni fikrimizning isboti sifatida keltirishimiz mumkin. Ya'ni:

1. Mamlakatimizda erkin bozor munosabatlariga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning olib borilishi. Bu esa o'z navbatida yangi qadriyatlarning vujudga kelishiga asos bo'lmoqda. Ma'lumki, erkin bozor iqtisodiyoti liberalizm, iqtisodiy plyuralizm tamoyiliga asoslanadi. Bunda mulk erkinligi va mulk shakllarining teng huquqliligiga alohida diqqat qaratilib, hech bir mulk shaklining yakka humronligiga aslo yo'l qo'yilmaydi.

Bozor iqtisodiyotining asosiy tayanchini xususiy mulk va tadbirkorlik faoliyati tashkil qiladi. Shu boisdan ham bugungi kunda jamiyatimizda aholining mulkka egalik qilishi, undan foydalanishi va tasarruf etishi, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati hamda biznes bilan shug'ullanishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bir so'z bilan aytganda, iqtisodiy faoliyatda mehnat motivlari shakllanib, ijtimoiy adolat tamoyillari kun sayin qaror topib bormoqda.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda "Xususiy mulk daxlsizligi va uni har qanday tajovuzlardan himoya qilish, kichik biznes vakillari va tadbirkorlarga keng erkinlik berish, ular faoliyatiga noqonuniy aralashuvlarning oldini olish – iqtisodiy siyosatning asosiy vazifasi bo'lib qoladi" [1,141].

2. Respublikamiz miqyosida yuz berayotgan iqtisodiy islohotlarning me'yoriy-huquqiy asoslarining hozirgi zamon andozalari negizida yangilanib qayta yaratilishi. To'g'ri, har bir sohada huquqiy bazaning yaratilishi va uning yangilanib, qayta to'ldirilib borilishini bugungi kunda hayotning o'zi taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev bugungi kunda ushbu masalalarga alohida diqqat qaratgan holda quyidagi masalalarning amalga oshirilishini muhim deb hisoblaydi: "Biznes yuritishning olis istiqbolga mo'ljallangan imkoniyatini ta'minlash, bugungi kunda tadbirkorlik sohasini tartibga soluvchi minglab qonun hujjatlari mavjudligini inobatga olib hamda davr talablaridan kelib chiqib tadbirkorlik sohasidagi qonunchilikni yanada takomillashtirish va liberallashtirish maqsadida yagona "**Tadbirkorlik kodeksi**"ni ishlab chiqish"ning zarurligini uqtiradi [1,141]. Shuningdek, davlat rahbarimiz "**Har bir oila – tadbirkor** g'oyasini izchillik bilan hayotga tadbiiq etish, jamiyatda faol tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish, maktabdan boshlab oliy ta'lim muassasalarida ham tadbirkorlik to'g'risida darslar o'tish, to'garaklar tashkil etish, jumladan, "**Tadbirkorlar akademiyasi**"ni, sohaga qiziqayotgan yoshlar uchun esa konsalting markazlarini tashkillashtirish"ning bugungi kunda dolzarbligiga alohida urg'u beradi.

Demak ijtimoiy rivojlanish, umuman ijtimoiy voqelikda ro'y berayotgan har qanday o'zgarishlar, yangilanishlar amaldagi mavjud me'yoriy-huquqiy bazani ham shunga monand to'ldirilib borishini taqozo etadi. Shu sababli ham, yangi qonunlarning qabul qilinishi erkin bozor iqtisodiyotining muhim sharti hisoblanadi. Ahamiyatli jihatlaridan biri shunda, qonunlar muayyan soha doirasida mavjud masalalarni to'liq qamrab olgan bo'lishi va uzoqqa mo'ljallangan strategik maqsadga xizmat qilmog'i dardkor.

3. "Taraqqiyot strategiyasi"ning Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi o'rni va roli. Mazkur strategiya hayotimizning barcha jabhalarini o'zida aks ettirib, unda bugungi davr talablariga to'laqonli javob beradigan taktik vazifalar va harakat usullari aniq belgilab olingan, nazariya va amaliyot uyg'unligi o'z ifodasini topgan.

Ma'lumki, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlamasdan, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni zamon ruhiga mos ravishda yangilamasdan turib taraqqiyotning yuqori cho'qqisini zabt etish

mumkin emas. Shu sababli ham muhtaram Prezidentimiz “Biz erkin va kuchli iqtisodiyotni Yangi O‘zbekistonni barpo etishning hal qiluvchi sharti deb bilamiz” [1,44] – deya alohida ta’kidlaganlar.

Qayd etish joiz, hozirgi kunda “Taraqqiyot strategiyasi” jamiyat yangilanishining ijtimoiy-iqtisodiy asosi sifatida: a) insonlar ongida iqtisodiyot umuman erkin bozor iqtisodiyoti bilan bog‘liq dunyoqarashning yangi qadriyat sifatida shakllanishiga yordam bermoqda; b) ijtimoiy-iqtisodiy sohaga doir dunyo tajribalarini, shuning bilan birga umuminsoniy qadriyatlarni ona diyorimizga tadbiq etish imkonini bermoqda, bu esa o‘z navbatida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ushbu sohadagi muhim islohotlar bilan uyg‘un bo‘lishida aks etmoqda; d) mazkur sohadagi islohotlarning markazida inson hayoti, uning ehtiyoji va qiziqishlari, xalq manfaati, xalqimizning milliy an‘analari, milliy-madaniy qadriyatlariga mos kelgan taqdirdagina o‘zining ijobiy natija berishini isbotlamoqda.

Shuni ham alohida qayd etib o‘tish zarurki, bizning nazdimizda bozor munosabatlari insonga erkin yashash uchun imkoniyat, undan foydalanish esa haqiqiy erkinlikning ko‘rinishidir. Shu ma’noda erkin bozor iqtisodiyotida ishlatiladigan va amalda qo‘llaniladigan raqobat tushunchasini insonlar nomaqbul hodisa sifatida emas, aksincha, bozor iqtisodiyoti sharoitida berilgan imkoniyatdan foydalanish imkoni yoki erkin bozor demokratiyasi deb, ya’ni erkin yashashning bir fenomeni deb tushinishlari lozim. Agar erkinlikka ontologik nuqtai nazardan yondashsak, erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida insonga berilgan erkinlikning o‘zi yetarlidir. Gnoseologik nuqtayi nazardan esa erkinlikning faqat o‘zi emas, balki uning inson tomonidan idrok etilishiga ahamiyat qaratiladi. Aksiologik nuqtayi nazardan erkinlikning qabul qilinishi va e‘zozlanishining qadriyat darajasiga ko‘tarilishi muhimdir. Umuman olganda, erkin bozor iqtisodiyoti va erkinlik o‘zaro dialektik bog‘liqlikda namoyon bo‘luvchi hodisadir.

Bizning fikrimizcha, mulk ham erkinlikning bir ifodasidir. Chunki hozirgi bozor munosabatlari doirasida mulkning demokratik xususiyatlari nihoyatda katta ahamiyat kasb etib, erkinlik bilan bog‘liq qadriyat sifatida namoyon bo‘lib bormoqda. Shu boisdan ham erkin bozor munosabatlarini barqarorlashtirish uni qadriyatga aylantirishning ilmiy-amaliy asoslarini, pedagogik usullarini, ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot mexanizmlarini yaratish va ulardan keng foydalanishni bugungi kunning o‘zi zaruratga aylantirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev.Sh.M. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. 124-bet
2. Nazarov.Q. “Aksiologiya” (Qadriyatlar falsafasi). – T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2011. 384-bet.
3. Haydarov.X.F. Jamiyat qonunlari – islohotlar jarayonlarini bilish va boshqarish omili. Falsafa fanlari dokt...diss.avtoreferati. – T.: 2022. 24-bet.

MUNDARIJA:

Бош муҳаррир минбари	«Ўзбек фалсафаси» тушунчаси	2
N.Hakimov	Yashil iqtisodiyot strategiyasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan uyg'unligi	7
O.Yusupov	Ахборот соҳасидаги глобаллашув ва баркамол авлодни тарбиялаш вазифалари	11
Р.Чориев	Абу Наср Форобийнинг инсон маънавий олами ҳақидаги қарашлари	15
Ж.Юсубов	Фридрих Ницше фашизмиди?	19
Н.Жураев	Темурийлар давлати ва ҳуқуқи тарихини сунъий интеллект орқали ўрганиш масалалари	24
Ш.Улжаева	Историография истории города Ходжейли	28
Г.Тошева		
Б.Кошанов	Али Сафийнинг борлиқ тўғрисидаги қарашлари	32
Д.Хужаниязов	Стратегемалар фалсафасининг илдизлари ва талқинлари	36
У.Мавлянов	Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning yangi qadriyatlar tizimi shakllanishiga ta'siri	40
Д.Ўринбоев	Tarbiya – milliy va umuminsoniy qadriyatlarning tarkibiy qismi sifatida	44
Q.Kdirbayev	XIX asr oxiri XX asr boshlarida farqona vodiyasi dehqonchiligidagi sug'orish usullari va toshqinlar takvimi	48
D.Kenjayeve	Etnomadaniy kompetensiyani takomillashtirish usullari va strategiyalari: milliy va hududiy materiallarni badiiy o'quv dasturlariga integratsiyalash	52
З.Исоков	Baraka haqida mushohadalar	55
N.Suyarov	Islom dinida "nafs" tushunchasining turlari va talqini	59
S.Ismoilov	Объективные условия, влияющие на менталитет нации	63
B.Absattorov	Модернизация шароитида ёшларни маънавий-ахлоқий жиҳатдан тарбиялаш масалалари	67
T.Курбанов	Talaba-yoshlar ma'naviy yuksalishida bo'sh vaqtdan foydalanish madaniyati	70
M.Бўриев	Muhandislik ta'limi - sohalar talabalarida tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari va bosqichlari	74
A.Xayitov	Boshlang'ich sinf o'quvchilarni ma'naviy barkamol inson ruhida tarbiyalashda ertaklardan foydalanish	79
T.Butayev	Jamiyat taraqqiyotini barqarorlashtirishda ekologik xavfsizlikni ta'minlashning ahamiyati	82
T.Qo'lyiyev	Ellinistik davrda samarqand shaharsozlik taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari	86
A.Ashurov	Семиотический концепт как семантическое ядро построуктуралистического дискурса	90
O.Habibullayev	Халқ таълим-тарбияси ва маърифий изланишлар	94
A.Тюкмаева	O'zbekistonda yoshlarning oilaga munosabatini shakllantirishda an'anaviy qadriyatlarning o'rni	97
H.Рахмонбердиева	Ma'naviyat tushunchasi va uning ilmiy asoslari	100
A.Sultonov	Ривожланган мамлакатларда иқтисодий таълим: тенденциялар ва ривожланиш йўналишлари	103
B.Norjigitov		
X.Саидова		

I.Abdullayev	Yoshlar hayotiy qadriyatlari transformatsiyasida axloq va din uyg'unligining o'ziga xos jihatlari	106
O'.Sharopov	Yoshlar psixologiyasida oilaviy hayotga tayyorlanish va oila qurish muammosi	110
M.Sayfitdinova	Blog-kontentlar evolyutsiyasi va uning jamiyat ma'naviy muhitiga ta'siri	114
Sh.Salimov	Mehnat migratsiyasi: xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik va milliy qonunchilikni takomillashtirish masalalari	118